

# BRIFING



## BRIFING

Termiz shahar hokimining o'rinbosari Bunyod Jo'raev ishtirokida "Maishiy chiqindilar to'planishining atmosferaga ta'siri, bu borada shahar hududida olib borilayotgan ishlar" mavzusida brifing o'tkazildi

Hurmatli shahrimiz fuqarolari !

Barchamizga ma'lumki, Hurmatli Prezidentimizning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratayotgan alohida e'tiborlari natijasida Termiz shahrida ham yashil hududlarni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratdi desam, mubolag'a bo'lmaydi.

2022 yildagi chiqindilar bilan bog'liq ishlarni takomillashtirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko'chatlarini ekish ishlarini samarali tashkil etish, ekologik holatni barqarorlashtirish bo'yicha vazifa va topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlanib borilyapti.

Ekologik madaniyat bir nechta omillar asosida shakllanadi. Tabiatga muhabbat, tabiat

haqidagi bilim va tasavvurlar, ekologik tarbiya, an'ana va qadriyatlar, ota-bobolar tarbiyasi shular jumlasidandir.

Tabiatga mehr-muhabbat har bir insonning qonida mavjud. Chunki, inson tabiat farzandi. U ona qornidayoq tabiat ne'matlaridan bahramand bo'ladi-nafas oladi, oziqlanadi. Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go'shadir. Tabiat ularni to'ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi.

Termiz shahrida ekologik holat va sanitar tozalash xizmatlarini yanada yaxshilash maqsadida Xalq ta'limi sohasiga

102 ta, maktabgacha ta'lim sohasiga 94 ta, sog'liqni saqlash sohasiga 10 ta, shuningdek boshqa ijtimoiy soha tashkilotlari uchun 100 ta chiqindi konteynerlari bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

Shahardagi mavjud 354 ta yuridik tashkilotlar bilan sanitar tozalash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ikki tomonlama shartnoma imzolash hisobiga sanitar tozalash xizmatlari ko'rsatganlik uchun muddati o'tgan debitor qarzdorliklari 20 foizga qisqartirildi.

Sanoat korxonalaridan atmosferaga tashlanmalarni kamaytirish maqsadida "Surxondonmahsulotlari" AJ tomonidan jami 3 ta chang-gazlarni tutib qolish uskunalari modernizatsiya qilindi.

3 ta sanoat korxonalari hududlari va unga tutash hududlarda chang-gazlarni o'zida tutib qoluvchi yirik bargli daraxtlar ekildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda zalvorli. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan bor bilim va mahoratimizni hamda tajribamizni ishga solishni, yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, aziz avliyolar o'sib ulg'aygan Termiz shahrining kelajak avlodlari uchun temir - beton bo'laklaridan iborat bir shahar emas, aksincha, "Yashillikka burkangan navqiron shahar" yaratishni bugundan, o'z uyimizdan boshlashimizni yana bir bor takidlab o'taman.

E'tiborlaringiz uchun rahmat!